

KBI (kuzatish, baxslashish, ishontirish) TEXNOLOGIYASINI “ZAMONAVIY AVTOMAGISTRALLAR” FANIDA QO’LLASH

Xoshimov Iftixorjon Burxonjon o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti assistenti

Quvatov Shohjahon Bozor o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti 2-bosqich magistranti

Ushbu maqolada “KBI (kuzatish, baxslashish, ishontirish)” pedagogik texnologiyasining afzalliklari uni qo‘llanish tartibi, qo‘llashda talab etiladigan qonun qoidalar va ushbu texnologiyadan samarali foydalanish yo‘riqnomasi keltirilgan. Shuningdek “KBI (kuzatish, baxslashish, ishontirish)” pedagogik texnologiyasini Zamonaviy avtomagistrallar fani misolida amalda bakalavr boshqichi talabalariga qo‘llash jarayoni tasvirlab berilgan.

Kalit so‘zlar: Kuzatish, baxslashish, ishontirish, g‘oyalar, Baxs-munozara, ijodiy fikrlash, nostandart fikrlash, qarama-qarshi fikrlar, muhokama, tortishuv.

Ключевые слова: наблюдение, обсуждение, убеждение, идеи, обсуждение, творческое мышление, нестандартное мышление, противоположные мнения, спор.

Keywords: observation, customization, persuasion, ideas, discussion, creative thinking, unconventional thinking, opposing thoughts, argument.

Pedagogik texnologiya—shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida ta‘lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o‘qituvchi faoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg‘ulari tizimli ravishda shakllantiriladi. Pedagogik texnologiya pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan barcha shaxsiy, instrumental va uslubiy vositalarning tizimi va ishlash tartibini anglatadi. Maxsus fanlarni o‘qitishda, yangi innavatsion texnologiyalardan foydalanib darslarni olib borish yaxshi natija beradi. Ya‘ni, ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayoni interfaol o‘yinlar orqali uyg‘unlashtiriladi. Buning natijasida O‘tiladigan mavzu talabaning ko‘z O‘ngida uzoq vaqt saqlanishi tajribada o‘rganildi. Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o‘rganayotgan ba‘zi o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya -faqat axborot texnologiyasi bilan bog‘liq hamda o‘qitish jarayonida qo‘llanishi zarur bo‘lgan o‘qitishning texnik vositalari, kompyuter, proektor yoki boshqa texnik vositalar. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi -o‘qituvchi va o‘quvchining

belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq.

KBI (kuzatish, baxslashish, ishontirish) texnologiyasi talaba xayotda faol o'rnini topishlarini, peshqadamlik va sardorlik sifatlarini, jamoada ishlash ko'nikmalarini, shuningdek, o'zgalar fikrini xurmat qilgan holda dalil keltira olish, o'z fikrini isbotlay olish, asoslash, ishontirish, munozara olib borish maxoratlarini hamda murosaga kelish, izlanish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

Bu texnologiya qo'laniladigan mashg'ulot talabalardan oldindan bo'ladigan tayyorgarlikni talab qiladi. Mashg'ulot mavzusi talabalar auditoriyasiga oldindan ma'lum qilinadi, vazifalarni bajarish uchun tayyorlanishga beriladigan aniq vaqt, mavzu mazmuni, uning murakkabligi va darajasiga qarab belgilanadi.

Ushbu mashg'ulot baxs-munozara uslubiga asoslangan bo'lib, o'zining aniq o'tkazilish vaqti va tartibiga egadir. O'qituvchi dastlab talabalarni mashg'ulot o'tkazish tartib-qoidalari bilan tanishtiradi va ularni kichik guruhlariga ajratadi. Misol tariqasida, "Avtomobil Magistrallari to'g'risida umumiy malumotlar" mavzusidagi mashg'ulotni o'tkazish tartibini ko'rib chiqamiz. Mashg'ulotning boshida talabalar muhokama qilishlari uchun bir necha savollar oladilar.

Masalan:

-Yuk tashish maqsadi va texnik rivojlanishni darajasiga qarab magistral turdagi yo'llar qanday turlarga bo'linadi?

-Qisman tez yurar yo'llar qanday yo'llar?

-Harakatning hisobiy jadalligi qanday ifoda bilan aniqlanadi?

-BMTning Yevropa iqtisodiy komissasi ishlab chiqqan maxsus yo'riqnomalarida uzoq masofaga halqaro yuk tashuvchi yo'llar nechi turga bo'linadi?

Kichik Guruh qatnashchilari o'z xohishlari bo'yicha bittadan savol tanlab oladilar va so'zga chiqishga tayyorlanadilar. Ular o'zlari tanlagan savol yuzasidan o'z tushunchalari, mavzuga bo'lgan yondoshuvlari, munosabatlari hamda ushbu savollarga javoblarini berishda o'zlarining egallagan holatlari qanchalik to'g'ri ekanligiga chiqishlari orqali talabalarni ishontirishga xarakat qiladilar. Uqituvchi ko'rsatmasiga binoan, boshqa kichik guruh qatnashchilari aytilgan fikr va so'zga chiqqan talabalarni egallagan holatlariga qarshi fikrlar aytadi, ya'ni so'zga chiqqan kichik guruh tanlagan yo'lni rad etadilar va shu orqali ularni baxs-munozara, tortushuvga undaydilar. Baxs-munozara yakunida xar bir so'zga chiqqan kichik guruh boshqa guruh a'zolarini o'zlarining tortishuvdagi fikrlari, tanlagan xolatlari dalil va isbotlari qanchalik to'g'ri ekanligiga ularni ishontira olishlari va o'z tomonlariga og'dira olishlari, iloji bo'lsa ularni o'z guruhlariga qo'shib olishlari kerak.

Mashg'ulotning oxirgi bosqichiga o'qituvchi yakun yasaydi va baxs-munozara bo'yicha o'z fikrini bildiradi.

Bu texnologiyada o'qituvchi talabalardan tashabbuskor guruhini tuzib olish mumkin va bu guruh baxs-munozara davomida aytilgan qiziqarli fikrlar, dalillar, asosiy tushunchalar, vaziyatdan chiquvchi holatlar, qiziqarli javoblar, mulohaza, takliflar va boshqalarni o'quv xonasining taxtasiga yoki qog'ozga yozib boradi.

Tashabbuskorlar guruhining vazifalari baxs-munozarani borishini nazorat qilish, qatnashchilarni faollashtirish, kerak bo'lsa, ba'zilarga aloxida tanbex berishi ham mumkin. Bunday tashabbuskor guruhlar auditoriyada guruhlarini faollashtiradi, ularni erkin holatda o'z fikrlarini aytishiga kerakli muxit va sharoitini yaratadi. Shuningdek, bu guruh mashg'ulotning hulosa qismida ham ishtirok etib, guruhlarining tanlagan xolatlari, bildirgan fikrlari va tortishuvlariga o'z munosabatlarini bildirishlari mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talabalarni dars jarayoniga qiziqishini oshirish va dars mashg'ulotlarini tushunarli bo'lishi uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarur. "KBI (kuzatish, baxslashish, ishontirish)" pedagogik texnologiyasi talabalarining mustaqil va tanqidiy fikrlash, Kuzatish, baxslashish, ishontirish, nostandart va qarama-qarshi fikrlash, muhokama qilish kabi qobiliyatlarini namoyon qilib, bilim va ko'nikmalari ortishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Н.Т.Омонов, Н.Х.Хо'jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" T.: Toshkent -2009.
2. Аршинов В. И., Буданов В. Г. Развитие "педагогической технологии" и проблемы теории обучения. Москва: Вопросы философии. – 2017.
3. В.А.Мамуров M.G.Мамайунусова R.N.Ibrohimova, Техник ta'limda darslarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash, Ijodkor o'qituvchi jurnali, Farg'ona shahri, 2022-yil.
4. Тошева Н.А. преподаватель Бухарский государственный университета, "Использование метода мозгового штурма на уроке комплексного анализа и его преимущества", научно-методический журнал "Проблемы педагогики" № 2 (53), 2021.
5. Q.H. Azizov "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi". O'quv qo'llanma. TAYLQEI. Toshkent 2019 y.